



TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

S.X.A'zamxonov

*O'zMU, Jurnalistika fakulteti
Ta'lim-tarbiya maslahatchisi-tyutor*

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida quyidagilarni ta'kidlagan edi: «agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir». U o'z fikrini davom ettirib: «o'qituvchi, nainki, sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan mo'tabar zotdir», deydi.⁹³

Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida: «O'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda», deb alohida ta'kidlangan edi⁹⁴. Ta'limni boshqarishning past darajasi o'qituvchining tayyor emasligi, innovasion jarayonlarning nomuntazamliligi bilan belgilanadi. Jamiyatning istiqboldagi taraqqiyoti integrallashgan ta'lim mazmunida o'z ifodasini topishi kerak.

«O'qituvchini hurmat qilmagan rahbarni men ham hurmat qilmayman», — deb aytgan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. Ko'plab rivojlangan davlatlarda o'qituvchilik eng obro'li kasblardan biri hisoblanadi. Shuning uchun endi o'qituvchining nufuzini oshirish, eng obro'li kasblardan biriga aylantirish bugunning eng muhim vazifasi bo'lishi kerak.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq, ma'naviyatimizni tiklash, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishni, uni zamon talablari bilan uygunlashtirish asosida jaxon andozalariga mos milliy ta'lim tizimini yaratish muammolarining muhimligi e'tirof etildi. - Bu davrda o'zbek etnosining ko'p asrlik madaniyatidan kelib chiqqan holda, uning asosiy xususiyatlarini ko'z qorachig'iday asrash muqqaddas burchga aylandi.

Shu masalalardan chetlashmagan holda, mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va uning hukumat rahbariyati mamlakatda chinakam milliy ta'limni tarkib toptirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Buni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlaridan anglab olishimiz mumkin: «Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu

⁹³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2011. – 176 б.

⁹⁴ Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури тўғрисида»ги Қонуни. Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 18-сон. –Тошкент: Адолат, 1998. – 281 б.





o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidlaydi Prezidentimiz⁹⁵.

Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar - yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi.

Ta'lim-tarbiya borasida birinchi prezidentimizning hizmatlari benihoya ko'p. Buni ularning quyidagi fikrlaridan ham anglab olishimiz mumkin: «Ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin, ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bulmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan oliy maqsad, ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi»⁹⁶. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ayni shu maqsadda kabul kilingan qonunlardan biridir. Ta'lim olish huquki O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida ham belgilab berilgan (1,17 moddalar).

Respublikadagi vazirliklar, muassasalar va jamoatchilik ta'limning yangilanish yo'lida faollik ko'rsatmoqdalar. Ta'lim tizimini tubdan qayta qurish xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan amalga oshirilmokda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 6 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-1313-sonli qaroridan ko'zlangan eng asosiy maqsad ham, yurtimizning intellektual resurslarini yanada boyitishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish yo'lida olimlar-u amaliyotchilar, professor-o'qituvchilar yangi o'quv reja hamda dasturlar, qo'llanmalar, metodik materiallar ustida faol ishlar olib bormoqdalar, Respublikadagi ta'lim yangiliklarining muhokamasini o'tkazishda yuzlab eksperimental maydonlar faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda yangi o'quv tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Yangidan yangi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, gimnaziya, isxtisoslashtirilgan maktablar, bog'chalar, kollej, lisey, oliy o'quv yurtlari va boshqa bir qator o'qitish muassasalari tashkil etilib, ular turlicha yunalishlar buyicha ish olib bormoqdalar.

Hozirgi kunda o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularning ilmiy tafakkurini o'stirishda maktab

⁹⁵ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Тошкент шаҳар Учтепа туманидаги 78-мактабдаги нуткидан.

⁹⁶ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 3775-сонли Қарори.





o'qituvchilarining pedagogik faoliyat darajasi muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda yosh avlod tarbiyachilari jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligini ta'kidlagan holda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: "... tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak»⁹⁷. Demak, o'qituvchilarning faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyati uning kasbiy tayyorgarligi, mahorat va malakaga egalik darajasi, zimmasidagi vazifalarni bajarishga nisbatan mas'uliyat bilan ijodiy yondashishi hamda o'z ustida qunt va izchillik bilan ishlashi asosida ta'minlanadi.

Maktab o'qituvchilarining oldiga qo'yilgan o'quvchilarni madaniy, ma'naviy, mafkuraviy, shakllangan milliy o'zligi, tili, diniy e'tiqodi, qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlariga sodiq komil inson sifatida tarbiyalash kabi keng ko'lamli vazifalar oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislar tayyorlash mazmunini takomillashtirishni talab etadi. Shuning uchun ham bo'lajak mutaxassis shaxsini kasbiy rivojlantirish va boyitish, estetik jihatdan o'stirish va yo'naltirish asosida uni o'z sohasining serqirra ustasi qilib shakllantirish hamda Davlat ta'lim standartlari talablari darajasida nazariy bilim va malakalarini tarkib toptirish muammolari yotadi. Insonparvarlik tizimini modernizatsiyalash resurslar integratsiyasigagina yo'naltirilmagan, balki axborotlarning globalashuvi sharoitida barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganidir. Insonda ob'yektiv borliq, moddiy olam va o'z-o'ziga nisbatan qadriyatli munosabatlarning tarkib topishi buning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Bugungi kun mohir pedagogidan talab qilinadigan asosiy jarayon bu uning pedagogik mahorati, ya'ni talabaga dars berish va uni tarbiyalash mahoratidir.

Jamiyat taraqqiyoti tendensiyasiga tayangan holda qadriyatlar, maqsadlar hamda ta'limning rivojlanish qonuniyatlari, o'qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish tizimiga qo'yilgan talablar, innovatsion yangilanishlar sharoitida uyg'unlashish va globalashish, ta'limni boshqarishda ko'proq umummadaniy tamoyillarga murojaat qilinishi lozim, bunda:

- pedagog kadrlar malakasini oshirishda uzviylik yoki tadrijiylik tamoyili;

⁹⁷ Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 7 б.





- ma'naviyatlilik tamoyili, madaniyatli anglash tamoyili, inson va ta'limning qadriyat ekanligi, ta'lim berish faoliyati;

- o'quv jarayonini boshqarishga tizimli qadriyatli yondashish tamoyili, o'qituvchilarni modernizasiyalashgan ta'lim sharoitida ishlashga tayyorlashga oid ilmiy yondashuvlarni muayyan tamoyillarga tayangan holda ilgari surish;

- o'zaro aloqalarni hisobga olish tamoyili, rivojlanishda muntazamlik va nomuntazamlikning o'zaro birgalikdagi harakatini hisobga olish tamoyili, agar muntazam rivojlanish yo'nalishi ko'p darajali innovasion jarayonlarning qo'zg'alishini tuzatishni nazarda tutsa;

- inson faoliyatining barcha turlarida konseptual bilimlarning tizimli-ilmiy mohiyati ortishi tamoyili;

- o'qituvchilarni ishlariga tayyorlashda oldinni ko'ra bilish va bashorat qilishning yetakchiligi tamoyili, bu qadriyatli kelishganlik va qadriyatli intiluvchanlik sifatida e'tirof etiladi.

Xuddi mana shu tamoyillarga tayanish natijasida ayrim muhim talablar kelib chiqadi. O'quv jarayonini boshqarishning ilmiyligini ta'minlash hamda madaniyatlararo hamkorlik va birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish. Bunda:

1) falsafiy darajada – bu ijtimoiy madaniy kontekstlarning kengayishi, ta'lim jarayoni natijaviy komponentining qadriyatli natijalangan qismigacha rivojlantirish;

2) umumilmiy darajada – umumilmiy ahamiyatga ega bo'lgan metodlarni qo'llash, jumladan, modellashtirish, imitasion, o'yinga asoslangan o'quv jarayoni modelini ishlab chiqish; o'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikni kengaytirish, bunda modellashtirish va bashorat qilish metodlaridan foydalanish, iqtisodiy pedagogik modellashtirish va resursli ta'limiy bashorat qilish;

3) muayyan ilmiy darajada – ta'lim mazmunini loyihalash qadriyatlarga yo'naltirilgan tizim sifatida hamda ta'lim texnologiyalarining ijtimoiy madaniy vazifalarini dolzarblashtiruvchi hodisa sifatida muhim ahamiyatga ega; ssenariyli rejalashtirish metodidan foydalanish hamda o'quv jarayonini boshqarishda tizimli dinamik modellashtirish o'qituvchi faoliyatining asosini tashkil etishi lozim;

4) o'qituvchining metodika va texnikasi darajasida – individual tabaqalashtirilgan yondashuvni kuchaytirish, ta'limning uzluksizligi tamoyiliga amal qilish hamda bu jarayonda o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tamoyillar va qoidalarni amaliyotga tatbiq etish shart-sharoitlari o'qituvchilarni modernizasiyalashgan ta'lim sharoitida ishlashga tayyorlashning uzluksiz jarayonida jamiyat innovasion rivojlanishining muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. O'quv jarayonini innovasion tarzda yangilash jamiyatning umumiy qonuniyatlariga yaxlit tarzda hamda o'qitish qonuniyatlariga qisman tayangan holda amalga oshiriladi.

O'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining mazmunini aniqlash va uni loyihalash ham alohida dolzarblik kasb etadi. Bunda uzluksiz





tayyorlash jarayonining rejasi, dasturlari, o'quv materiallarini ishlab chiqish nihoyatda zarur. O'quv jarayoni va malaka oshirish tizimi orasida bir qator ahamiyatli farqlarning bo'lishiga qaramasdan, o'qituvchilarni uzluksiz tayyorlash tizimini tenglashtirish talab qilinmoqda. Zamonaviy talablarni tadbiiq qilish ehtiyojiga ko'ra, ta'limning ilmiyligi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muayyan dasturini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilarning individual ta'lim yo'nalishlarini ham belgilash ehtiyoji ham vujudga keladi. Bunda modernizatsiyalashgan ta'lim mazmunini o'quv jarayoniga tadbiiq etish maqsadidan kelib chiqqan holda yondashish lozim.


O'quv jarayonini boshqarish yuqorida aytilgan tamoyillar va qonuniyatlar asosida amalga oshirilgandagina, rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, yangi texnologiyalar bilan boyitish, mazkur jarayonda o'qituvchining o'rne, uning pedagogik faoliyatini chuqur o'rganish muhim vazifalardandir. Zamonaviy ta'lim nazariyasi ko'plab rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasida erishgan yutuqlarini mujassamlashtirgan bo'lib, ular o'zining maqsad, vazifalari, mazmuni, milliy xususiyatlari hamda sifat ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farqlanadi. Zero, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan jarayonlar o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'ziga xoslikni ko'rsatadi.

O'qituvchining mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongliligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodiqligiga, bilim va fikr doirasining kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermoq kerak. Ayniqsa, o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lishi zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki, kishida bilim, fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun o'qituvchilik sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'quvchiga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarni yangilab borishi zarur.

Boshqaruv tizimining hozirgi tamoyili, bu boshqaruv uslublari va tuzilishining, rivojlanishning asosida mehnat potensialidan muqobil foydalanishning majmuidir. Hozirgi sharoitda har qanday korxonaning ishchilar motivatsiyasida bilimning, tajribaning, mehnat tajribasining, tashabbuskorlikning, tadbirkorlikning va boshqa ishchilar potensialining moliya hamda ishlab chiqarish kapitali bilan birgalikda eng muxim o'rinda turishidir.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim professor-o'qituvchilarining Nizomida ularning mehnat faoliyatlari naqadar kengligi va qamrovining yuqoriligi ko'rinib turadi. Ushbu Nizomga asosan o'qituvchi pedagogik vazifaga doimo tayyor bo'lib pedagogik ta'lim asoslarini chuqur bilishlari lozim.

Pedagog talabaning rivojlanishi, o'qishi va tarbiyasini o'rganib uni boshqarib turadigan holda bo'lishi lozim. Boshqarib turish uchun esa talabalar hayotida kechayotgan har bir holatdan doimiy ravishda xabardor bo'lib turishi kerak, ya'ni ishlab chiqarishni boshqarishdagi kabi texnik tomonlari yuqori darajada bilishi, shu davrda ma'lum bo'lgan ilmiy ta'limdan xabardor bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki,





pedagog psixologik-pedagogik fanlarni yaxshi bilishi lozim. Bundan tashqari pedagog oliy ta'limning ertangi kuni talablarini ham hisobga olgan holda hozirgi kun talabiga nisbatan ozroq oldinda bo'lishi lozim.

Zamon talablari shuki professor va o'qituvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim: Jumladan:

1. Bilish qobiliyati. 2. Tushuntira olish qobiliyati. 3. Kuzatuvchanlik qobiliyati. 4. Nutq qobiliyati. 5. Obro' orttira olish qobiliyati. 6. Tashkilotchilik qobiliyati. 7. Muomala qila bilish qobiliyati. 8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati. 9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati kabilar.

Qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaidi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo'layotgan voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchali zarurligini chuqur his qilishi zarur⁹⁸.

O'qituvchining mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongliligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodikligiga, bilim va fikr doirasining kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermoq kerak. Ayniqsa, o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lishi zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki, kishida bilim, fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun o'qituvchilik sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'quvchi, talabaga ma'naviy-axloqiy ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarni yangilab borishi zarur. Buning uchun ko'p o'qishi, o'rganishi lozim. O'qituvchini mahoratiga baho berishda uni ta'limni qaydarajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir. Uzluksiz ta'limda dars va ma'ruzalarni mukammal tashkil qilishi o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tilgan mavzular yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularning iymoni, e'tiqodi va mafkuralarining shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, dastlab dars va ma'ruzalarda ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham darsning sifati belgilaydi.

Ta'limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ustoz bilan shogirdlar qalbini, ruhini bir-biriga mustahkam bog'laydi, ular o'rtasidagi samimiy hurmat va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o'qituvchi avvalo, o'z fanini va uni o'qitish yo'l-usullarini mukammal o'zlashtirib olishi, o'qituvchi-murabbiyga xos madaniyatning yuqoriligi, o'z shogirdlariga hurmat va muhabbat, ular hayotiga qiziqish va ruhiy holatlarni bilish va tushunish, bosiqlik, his-tuyg'ularini boshqara

⁹⁸ Ўқувчи маънавиятини шакллантириш /Тузувчилар: Ж.Фозилов, Р.Султонов, Ҳ.Саидов. Нашр учун масъул Ж.Ф.Йўлдошев. – Тошкент: Шарк НМК, 2000. – 12-б.





olishlari, tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyatiga e'tibor berishlari, nutq madaniyatining yuqoriligi, jamoat ishlarida faolliklari, ayniqsa, omma o'rtasida ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy-madaniy ishlar targ'ibotchilari bo'lishlari lozim. Shundagina, mamlakatimizning kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlarimiz o'z murabbiylarini nomini zo'r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar. Mustaqil O'zbekiston davlatining umumiy ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchi, pedagog faoliyatiga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy, diniy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy barkamol, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro, sosiologik, psixologik, pedagogik bilimli va mahoratli mutaxassis kadrlarning bo'lishi muhimdir.

